



UDK: 316.472.4:316.74(575.1)

**Shavkat IBRAGIMOV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*  
*E-mail:ibragimov\_shavkat@inbox.ru*

*Filologiya fanlari doktori A.Karimov taqrizi acocida*

## TELEVIDENIEDA IQTISODIY KO'RSATUVLARNING TIPOLOGIK TASNIFLARINING NAZARIY-AMALIY PARADIGMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston televideniesida iqtisodiy mavzudagi ko'rsatuvlarni tayyorlash metodlari, tipologik tasniflar, iqtisodiy ko'rsatuvlarning nazariy-amaliy paradigmasi tahlil qilingan. Muallif telujurnalistlarning iqtisodiyot nazariyasini tushinishi bilan birga iqtisodiy islohat mazmun-mohiyatini tahlil qila olish va manbalardan mahorat bilan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligi haqida fikrni bildiradi. Telekanallarda iqtisodiy mavzuda ko'rsatuv tayyorlayotgan telejurnalistlardan har bir tanlangan mavzuni tahlil qilishda mutaxassislarini jaib qilish, ularni ochiq muloqotlarga jaib etish talab qilinadi.

**Kalit so'zlar:** televidenie, ko'rsatuv, dastur, iqtisodiy mavzu, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy jurnalistika, biznes jurnalistika, tipologiya, paradigma, ommaviy axborot vositalari, axborot.

## ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА ТИПОЛОГИЧЕСКИХ КЛАССИФИКАЦИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПЕРЕДАЧ НА ТЕЛЕВИДЕНИИ

Аннотация

В данной статье анализируются методы подготовки экономических программ на узбекском телевидении, типологические классификации, теоретико-практическая парадигма экономических программ. Автор высказывает мнение, что тележурналисты должны обладать способностью анализировать суть экономической реформы и умело использовать источники, а также разбираться в теории экономики. Тележурналисты, готовящие передачи на экономические темы на телеканалах, обязаны привлекать экспертов к анализу каждой выбранной темы, вовлекать их в открытый диалог.

**Ключевые слова:** телевидение, шоу, программа, экономическая тема, экономические реформы, экономическая журналистика, деловая журналистика, типология, парадигма, средства массовой информации, информатизация.

## THEORETICAL AND PRACTICAL PARADIGM OF TYPOLOGICAL CLASSIFICATIONS OF ECONOMIC TELEVISION PROGRAMS

Annotation

This article analyzes the methods of preparing economic programs on Uzbek television, typological classifications, and the theoretical and practical paradigm of economic programs. The author expresses the opinion that television journalists should be able to analyze the essence of economic reform and skillfully use sources, as well as understand the theory of economics. Television journalists preparing programs on economic topics on TV channels are required to involve experts in the analysis of each selected topic, engage them in an open dialogue.

**Key words:** television, show, program, economic topic, economic reforms, economic journalism, business journalism, typology, paradigm, mass media, information.

**Kirish.** O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar mohiyatini har bir fuqaroga yetkazish, ommanning faolligini oshirish, odamlarni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoniga ko'proq jaib qilishda keng va tizimli tarzda yo'lg'a qo'yilgan iqtisodiy axborot va tashviqotsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Iqtisodiy axborotning samaradorligini oshirishda "iqtisodni yuzaki tushunadigan professional muxbirlardan ko'ra, jurnalistikani juda qo'pol tushunadigan iqtisodiy ma'lumotga ega mutaxassislarini yollash ehtimoli ko'proq"<sup>[1]</sup>, degan fikrlar ham bor. Iqtisodiy tashviqot sifatini oshirish masalasi esa O'zbekiston ommaviy axborot vositalari orasida yetakchilik qilayotgan Respublika Milliy teleradiokompaniyasi telekanallaridagi dasturlarda berilayotgan iqtisodiy mavzudagi ko'rsatuvlar samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liqlik tomonlarini anglaymiz. Bu masalaning samaradorligi ayniqsa "Axborot-24", "Davr", "Poytaxt" iformatsion dasturlarida yoritilayotgan iqtisodiy mavzudagi materiallar va "Uzreport" telekanali iqtisodiy-ishlab chiqarish ko'rsatuvlarini tayyorlayotgan studiya telejurnalistlari mahoratiga bog'liq. Telejurnalistlar zimmasiga O'zbekistonning iqtisodiy hayotini, amalaga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni va shu sohada joriy etilayotgan yangiliklarni yoritib borishi yotadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha besh yilga mo'ljallangan (2017-2021 yillar) birinchi Harakatlar strategiyasi,

Yangi O'zbekistonni 2026 yilgacha rivojlantirish strategiyasini, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida quydagi asosiy g'oyalar, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilab berilgan, amalga oshirish davom etayotgan dolzarb vazifalar belgilangan hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi, shuningdek, iqtisodiy islohotlar, bank tizimi tarraqqiyotiga oid ma'ruba va asarlari maqolamizning metodologik asosi sifatida o'rganildi.

Ishning nazariy asosi iqtisodiyot tizimi, zamonaviy tadbirkorlikka oid iqtisodiyisodchi olimlar, iqtisodiy va ishbilarmon jurnalistikasi masalalari bilan shug'ullanuvchi jurnalistika nazariyotchi tadqiqotchilar YE.L.Vartanova, D. A. SHevchuk, B. Y. Misojnikov, M. Xudoqulov, X. Do'stmuhamedov, Y. Mamatova, Sh. Ibragimov ishlaridan iborat.

Ushbu maqolani yozish jarayonida F.P.Nesterenko, Q.T.Ernazarov, Y.I.Mamatov alarning «Trud jurnalista: professionalizm, tvorchestvo, masterstvo», Q.T.Ernazarov va hammulliflardan «Reporteri faoliyati, nazariya va amaliyat» V.M.Goroxovning «Osnovi jurnalistogo masterstva», Kuznesov G. V. «TV-jurnalistika kriterii professionalizma», S.Murotovning «Televide niye v poiskakh televide niye» internet materiallарidan, davriy matbuot nashrlaridan olgan nazariy xulosalaridan foydalandik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ommaviy axborot vositalari va jurnalistikaga doir fikrlari, iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha turli ma'ruza va asarlarda aytgan fikrlari mavzuni yoritishga amaliy jihatdan yordam berdi. Ushbu maqolani tayyorlashda observatsion (kuzatuv), eksperimental praksimetrik (jurnalist asarlari tahlili), sotsiologik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** 2024 yilni Prezidentimiz tashabbussi bilan "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi tufayli mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tayanchi bo'lgan kichik biznes vakillarini iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlash uchun Davlat dasturi e'lon qilindi. Ushbu Dastur telejurnalislardan oldiga muhim vazifa yuklaydi. Hozir insonlar ongidagi psixologik o'zgarish haqida so'z borar ekan, faqat yuqorida kelgan buyruqqa itoat etishga o'rgannasdan yangicha fikrash, tashabbuskorlik bilan tarzini o'zgartirish kerak. Jamiyatimizda tadbirdorlar sinfi shakllanib ularning huquq va burchlari berilayotgan iqtisodiy dasturlardagi ko'rsatuvlarda to'liq ifodasini topib bormoqda. Ishga yangicha yondashish, uning sifati va tadbirkorning manfaatini tashviq qilish ham muhimdir. Umuman ko'rsatuv sifatiga ko'p narsa ta'sir qiladi. Korxonalarning ilg'or texnologillardan foydalanib yangicha ish tashkil qilishi va jahon andozalari talabiga yo'l olishi orqali erishgan yutuqlari haqidagi teleko'rsatuvlar odamlarda ishonch uyg'otadi.

Milliy teleradiokompaniya dasturidagi "Mulkdor", "Biznes akademiya," "Biznes xabarnoma", "Biznes yangiliklari", "Birja va bank", "Iqtisod erkinligi", "Yer ertaga kimniki", "Fermer faoliyati", "Erkin iqtisodiyot" va hokazo (hozir bu ko'rsatuvlarning ba'zi birlari teledasturlarda berilmaydi) berilgan ko'rsatuvlari ommaga iqtisodiy yangiliklardan xabar berish bilan birga iqtisodiy bilimiň oshirishga ham xizmat qilib keldi. Har bir ko'rsatuvda telejurnalist iqtisodiyotga bog'iqliq hodisa va yangiliklarni qamrab olishga harakat qiladi hamda maqsad sari boradi. Studiyalar dasturiga kiritilgan ko'rsatuvlarning o'z vaqt, o'z ish rejasi va o'z vazifasi bor. Iqtisodiy yangiliklar va iqtisodiga oid barcha axborotlar ommaviy axborot vositalarida obyektiv ravishda taqdim etilgan "biznes jurnalistikasi – ikkinchi va birinchi darajali auditoriya uchun tushunarli va qiziqarli bo'lgan iqtisodiy jurnalistikasi" [2] shaklida namoyon bo'lgan materiallarni "Axborot-24" dasturidagi xabar, reportajlarda mamlakatimiz korxona va xo'jaliklaridagi yangiliklarda kuzatamiz. Bizning kuzatishlarimiz natijasi o'laroq 2024 yilgacha bo'lgan informatsion ko'rsatuvlarda berilayotgan qisqacha xabarlar, yangiliklar ichida, iqtisodiyotga oid xabarlar dasturning 35-40 foizgachasini tashkil qilib turgan. Bunda mamlakatimizda ochilayotgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini va ularning qayta modernizatsiya qilinishi, kommunikatsiya inshoatlarining bunyod etilishi, bank va soliq sohasidagi o'zgarishlar, ishlab chiqilgan mahsulotlarning eksport qilinishi, import mollarning mamlakatimizga noqonuniy kirib kelishi, ichki xomashhyo mollarning tannarxi va qolaversa dunyodagi iqtisodiy o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin. Hozirga kelib bu ko'rsatgich 10 foizni tashkil etadi. Bunga sabab iqtisodiy mavzularga tahriririyat xodimlaridan yetarli e'tibor qaratmayotganidan deb bilamiz.

Ikki yillik ko'rsatuvlarni tahlil qiladigan bo'lsak ko'rsatuvlarda mavzu to'liq olib berilgandek, telejurnalistning bu sohadagi tushunchasi yeterlidealik, lekin joylarda fermerlarga yaratilgan sharoitlar va ularning haq-huquqi buzilganligi to'g'risida ko'plab shikoyatlar borligi haqida tahlili ko'rsatuvlarni deyarli uchratmaymiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi davrda eng muhim bo'lib turgan iqtisodiy mavzudagi dasturlarni tayyorlash uchun telejurnalislardan bilim va mahorat talab etiladi. O'zbekiston televidenesining sotsiologik xizmati ma'lumotlariga ko'ra, odamlarning iqtisodiyot xabarlariga qiziqishlari tobora oshib bormoqda. E'tibor berish kerakki, iqtisodiy siklli va ayniqsa, axboriy ko'rsatuvlarning mavzular majmui turli va keng ko'lamlidir. Iqtisodiy jurnalistika sohasi bo'yicha mutaxassis olimlardan biri G.S. Melnik "Xabarni qabul qiluvchini, mintaqaviy auditoriya tomonidan biznes ma'lumotlarini iste'mol qilishning o'ziga xos xususiyatlarini, uni

idrok etish stereotiplarini bilmasdan, muvaffaqiyatlari jurnalistik matnlarni yaratish va ishbilarmonlik muhitini uchun axborotni ommalashtirish usullaridan foydalanish qiyin" [3], degan fikri o'rtaga tashlaydi. Shuning uchun biz faqat asosiy mavzularni, ya'ni hammasini o'z ichiga qamrab olgan muhim sxema haqida gapiramiz. Bu mehnatni tashkillashtirish muammolari, respublika qishloq xo'jaligini boshqarish, ilmiy-teknik taraqqiyot masalalari, ijtimoiy ishlab chiqarish ta'sirchanligini oshirish, sanoat va qishloq xo'jalik taraqqiyotining respublikaliga mustaqilligini e'lon qilishdan so'ng imkonli bo'lgan tub yangi shakllarini singdirish (masalan, investitsiya, xalqaro aloqlar) va boshqalar. Ushbu asosiy mavzularni amalga oshirish usullarini ham ayтиб o'tish o'tish mumkin: bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalari, yangi sharoitlarda sanoat faoliyatları, qo'shma korxonalarini tashkil etish va ishlatish, chet el tajribasidan foydalanish va hokazo. Qishloq xo'jaligidagi eng ommalashgan yo'nalishlar: paxtachilik, chorvachilik, ipakchilik, poliz ekinlari, bog'dorchilik va uzumchilik. Ilgarilar qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan efir vaqtining 80% paxtaga bag'ishlanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Endi esa qishloq xo'jaligini yangicha tashkil etish, mulkka bo'lgan munosabatini o'zgartirish masalasi haqida ko'proq gapiriladi.

Respublika iqtisodiyotini boshqarishda noto'g'ri usuldan foydalanayotgan mahkama, idoralar va ularga yaqin bo'lgan mansabdorlarni tanqid qilishda oshkorla bo'lmagan tanqid mavjud. Albatta, bu holat jurnalislardan ishini qiyinlashtiradi. Ammo ularning o'zlarini ham iqtisodiy muammoni yuqiroq ko'tarish uchun nimalar qilish kerakligi haqidagi ko'rsatuvlar tayyorlashga bo'lgan urinishi sezilmaydi. Shuning uchun axboriy iqtisodiy telexabar tuzilishini tahlil etishda yordam beruvchi teleaxborot xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqaylik.

Iqtisodiy axboriy xabarlar va siklli ko'rsatuvlar tuzilishining odatiy ko'rinishlarini tahlil qilishdan oldin, iqtisodiy teleko'rsatuvlar va suyutlar mazmunini umumlashgan ko'rinishda ko'rib, tavsiflab chiqamiz. Mavz va tasvirga olish obyekti tanlashda muammonning muhimligi va uning kishilar hayotidagi bevosita roli, ularning mehnati va yashash tarzini yaxshilashdagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratish muhimdir. Ba'zi bir mutaxassislar "Iqtisodiy axborotni tarqatish xarakteri tizimli yoki bir martalik bo'lishi mumkin" [4], deb ta'kidlashadi. Ammo shunday holat ham bo'ladiki, viloyatdagi maxsus muxbirlar, ayniqsa, telejurnalislardan respublika, viloyat, tuman rahbariyatiga xush bo'lgan rahbar yoki uning o'rinosi ishni yangicha tashkil etgani bois respublika yoki viloyatda katta muvaffaqiyatlarga erishilgan haqida xabar beruvchi konyukturali mavzu tanlashadi. Teleaxborotning umumiy oqimida bu kabi mavzular auditoriyaga ta'siri sezilmaydi va iqtisodiy targ'ibotda jiddiy rol o'ynaymaydi.

Ko'rsatuvlarning geografiyasini kelsak, bunda ham televidenining o'ziga xos, ammo bu safar salbiy bo'lgan xususiyatlari ko'rina boshlaydi. Shuning uchun bir yil yoki bir necha yillik dasturlarni olganda ko'rsatuvlar geografiyasini bir xil bo'lmaydi. Mana shu jihat bilan televidenie matbuotdan ajralib turadi. Matbuotda esa har kim ham yoza oladi. Gazeta muxbiri biror materialni telefon orqali olishi mumkin. Telejurnalist ishni bunday usulda bajara olmaydi. Bu borada hamma narsa tuman va xo'jaliklarga boruvchi, kishilar bilan gaplasha oladigan va tasvirga tushirishni tashkil etadigan, kamera va videokassetasi bor maxsus muxbir faoliyati asosida amalga oshadi. Iqtisodiy xabarning ta'sirchanlik darajasi tomoshabinga mavzuning tushunarli bo'lgani va yaqinligi bilan bog'iqliq. Bu ommaviylik principiga xosdir.

Milliy teleradiokompaniya telekanali iqtisodiy axborotlarning hududiy ko'lami bo'yicha quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin: 1) respublika; 2) viloyat; 3) shahar; 4) tuman; 5) alohida korxona. Albatta, bu bo'linish shartlidir, chunki ko'plab xabarlarda bir vaqtida 2-3 guruhga tegishli umumlashgan ko'rsatkichlar holida ham beriladi. Umumlashtirilgan darajasiga mos ravishda axborotning ichki tizimi nuqtai nazaridan u turli variantlarda tuzilishi mumkin. Shuningdek, xalq xo'jaligini u yoki bu sohasini qamrab olish bo'yicha informatsiyaning bo'linishi mavjud. Bu yerda umumiy va sohaviy axborotni ajratib ko'rsatish kerak. Umumiy axborot

respublikaning barcha aholisi uchun qiziqish uyg'otib, dunyoqarashini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Sohaviy axborot esa torroq xarakterga ega bo'lib, faqat alohida kasb, hudud vakillariga qiziqish uyg'otishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, axborotga bo'lgan qiziqish tomoshabin manfaatidan kelib chiqmasa qabul qilinishi mumkin emas. U yoki bu axborotga bo'lgan amaliy ehtiyoj, uning auditoriya tomonidan tezda eslab qolinishiga asos bo'ladi.

Endi, axboriy va siklli iqtisodiy ko'rsatuvlar mazmuni va tuzilishi orasidagi o'zaro aloqadorlikning bevosita tahliliga o'tamiz. Aytib o'tganimizdek, axborot yangiliklari har kunlik "Axborot-24", "Davr" va shunga o'xshash dasturlarda berib boriladi. "Axborot-24"ga ajratilgan vaqtning 6% dan 20% gacha iqtisodiy xabarlar qoplaydi. Alohida iqtisodiy xabar "Axborot-24"da 30 dan 90 sekundgacha(ba'zan 3 daqiqagacha bo'lishi mumkin) vaqtini egallaydi. O'z xarakteri bo'yicha ular turli bo'ladi. Eng keng tarqalgan iqtisodiy axborotning to'rt xili mavjud: suxandon xabari, videosyujetli suxandon xabari, videosyujetli muxbir xabari, qahramon (brigadir, ishchi, xo'jalik rabbari) ishtirok etgan videosyujetli muxbir xabari.

2020-2024 yillarda axboriy telesyujetlar tahlili shuni ko'rsatadi, ya'ni ayrim faktlar eng oxirida aytish kabi xarakter xosdir. Misol uchun bunday xabarni tipik ko'rinishini olaylik, uning qismlarini ajratib ko'rsatamiz:

1) respublika tadbirkorlari Prezident farmoni, qarori yoki Davlat dasturi asosida iqtisodiy islohatlar olib borayotganligi va uni hayotga tadbiq etish maqsadida jonbozlik ko'rsatib yangi texnologiyalarni qo'llagan holda yangi ish o'rinnari ochayotganligi to'g'risida gapirladi. Muayyan viloyatda bu masalani amalga oshirilishi haqida bizga muxbir xabar beradi;

2) Muxbirning xabar berishicha, falon (tuman, viloyatdag'i) korxona tadbirkorlari aniq yo'nalishda muvaffaqiyatga erishdilar;

3) Muxbir eng yuqori natijaga erishgan tuman (xo'jalik, korxona) nomini aytadi. Odatda, bu axborot o'sha obyektning umumiy manzarasi bilan beriladi.

4) Muxbir eng ilg'or tadbirkorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari yoki rahbarlarining nomlarini beradi. Ulardan intervyyu oladi (korxona rahbarlaridan biri, tadbirkor)

5) Muxbir boshqa shu kabi niyatda mehnat qilayotgan ishchilar haqida gapiradi.

Iqtisodiy mavzuda ko'rsatuv tayyorlaydigan "jurnalist korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qila olishi, strategik rejalashtirish, investitsiya tahlili va marketing asoslarini

tushunishi, shuningdek, tavakkalchilikni baholash va qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish bo'yicha aniq tushunchaga ega bo'lishi kerak"<sup>[5]</sup>. Iqtisodiy telesyujetning tipik tuzilishi shundan iborat. Bu kabi xabarlarining ommalashib ketishi telejurnalリストlar ishimi bir qolipga solib qo'yishimi anglatadi. O'tkir xalq so'zları, maqollarri, aforizmlari voqelikni oyna kabi aks ettiradigan, tomoshabinlarda muhim tuyg'ularni keltirib chiqaradigan so'zlardan deyarli foydalanimaydi. Repotajlar shiorli xarakterdag'i ko'rsatuvlarga xos bo'lgan, boshida xabarning umumlashtirib berilishi bilan boshlanadi. Bu yerda til vositalaridan unumli foydalanan kerak, lekin "xalq iboralari" bilan ko'z-ko'z etish to'g'ri kelmaydi. Telepublisist faktlarni tushuntirib, guruhlarga ajratadi. Natijada axboriy maydon yuzaga keladi. Iqtisodiy axborot videsyujetlari xabar soni bo'yicha yakka va guruhli ko'rinishlarga bo'linadi. Birinchisi kirishsiz bo'lib, uni qoida bo'yicha boshlovchi o'qyidi, lekin ba'zida kirish gap ham mavjud bo'ladi. Guruhli videosyujetlar esa turli hodisali, Prezident Farmonidan kelib chiqqan, respublika, viloyat yangiliklari mavzu jihatdan bir xil ko'rinishda bo'ladi. Guruhli axboriy videosyujetlarda kirish, ko'p hollarda esa xulosa ham mavjud bo'ladi. Agar kirishni suxandon o'qisa, xulosani muxbirning o'zi keltirishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot o'tkazilgan olti yil davomida biron mavzuning chuqur iqtisodiy tahlil qilinishini uchratmadik. Telejurnalリストlar o'zları davlat siyosati shaklidagi iqtisodiy tadbirlarni mustaqil tekshirish o'tkazishda (masalan, fermerlikni tashkil etish, korxonani xususiylashtirish) tashabbusi sezilmaydi. Telejurnalista faoliyati respublika mahkamasи va idoralar qarashlariga bog'liq bo'lib qoladi. Ana shu nuqtai nazaridan, yangi qarashlarni ifodachisi bo'la olmaydi, o'z funksiyalarni to'la bajarishga qodir emasdek ko'rindi. Iqtisodiy teleko'rsatuv samaradorligini oshirish uchun ham ko'p ishlar qilinishi kerak.

Respublika iqtisodiyotini boshqarishda noto'g'ri usuldan foydalayotgan mahkama, idoralar va ularga yaqin bo'lgan mansabdorlarni tanqid qilishda oshkora bo'lmagan tanqid mavjud. Umumiylaplardan iborat tanqidlar adresli bo'lishi kerak. Albatta, bu holat jurnalリストlar ishini qiyinlashtiradi. Ammo ularning o'zları ham iqtisodiy muammoni yuqoriroq ko'tarish uchun nimalar qilish kerakligi haqidagi ko'rsatuvlar tayyorlashga bo'lgan urinishi sezilmaydi. Buning uchun iqtisodiy mavzuda ko'rsatuv olib boradiga va tayyorlaydigan jurnalリストlarning malakasini oshirib turish zarur.

## ADABIYOTLAR

1. Тимофеевский А. Факультет ненужных вещей // Эксперт. 2005. № 47 (493). С. 7.
2. Гавра Д.П. Деловая журналистика: к определению понятия // Средства массовой информации в современном мире. Петербургские чтения: Межвуз. науч.-практ. конф., 24-25 апр. 2007 г.: Сб. докл. Спб., 2007..
3. Мельник Г.С., Виноградова С.М. Деловая журналистика: Учебное пособие. СПб., 2010. С. 213..
4. Демина И.Н. Экономическая журналистика в массовой коммуникации. URL://https://vestnik.journ.msu.ru/books/2011/4/ekonomicheskaya-zhurnalistika-v-massovoy-kommunikatsii/
5. Письменная Е.В. Деловая пресса России и бизнес: Учебное пособие по спецкурсу для студентов факультета журналистики и вузов. М., 2003. С. 14..